



## Adolescent Psychology And Its Peculiarities

**Sherzodbek Khomidovich Khaydarov**

Jizzakh region educators to new  
methodologies teacher of the National

Center for teaching,  
Uzbekistan Telephone:

+998(99)-048-81-12,

email: [haydarovsherzodbek672@gmail.com](mailto:haydarovsherzodbek672@gmail.com)

**Abstract:** In this state of bringing the psychology of adolescents and its specific features, training sessions and requirements for the definition of mental development, examples of exemplary exercises for organizing training on their own.

**Keywords:** adolescents, communication, need, adolescence, skill, upbringing, endocrine, pituitary, thyroid, puberty, opportunity, competence.

## O'Smirlar Psixologiyasi Va Uning O'Ziga Xos Xususiyatlari

**Xaydarov Sherzodbek Xomidovich**

Jizzax viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga  
o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi, O'zbekiston

Telefon: +998(99)-048-81-12, elektron pochta:

[haydarovsherzodbek672@gmail.com](mailto:haydarovsherzodbek672@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'smirlar psixologiyasi va uning o'ziga xos xususiyatlari, aqliy taraqqiyotni aniqlash uchun o'tkaziladigan trening mashg'ulotlari va ularga qo'yiladigan talablar, mustaqil ravishda trening tashkil etish uchun namunaviy mashqlardan namunalar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** O'smirlar, muloqot, ehtiyoj, o'smirlik davri, mahorat, tarbiya, endokrin, gipofez, qalqonsimon bez, balog'at, imkoniyat, layoqat.



## Подростковая Психология И Ее Специфика

**Хайдаров Шерзодбек Хомидович**

Джизакская область приглашает педагогов

к новым методикам преподаватель

Национального центра обучения,

Узбекистан Телефон:

+998(99)-048-81-12, электронная почта:

[haydarovsherzodbek672@gmail.com](mailto:haydarovsherzodbek672@gmail.com)

### АННОТАЦИЯ

В данной статье приведены психология подростков и ее специфические особенности, учебные занятия и требования к определению психического развития, примеры примерных упражнений для организации обучения самостоятельно.

**Ключевые слова:** подростковый возраст, общение, потребность, подростковый возраст, навыки, воспитание, эндокринная система, гипофиз, щитовидная железа, половое созревание, возможности, способности.

O'zbekiston Respublikasida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar, yangilanishlar inson intellekti muammosini yanada chuqurroq va izchil ravishda tadqiq etishni taqozo etmoqda. "Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi", deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi", - dedi prezident Sh.Mirziyoev.

O'zbekiston xalqining rivojlangan mamlakatlar bilan teng huquqli munosabatga kirishuvi har jihatdan yetuk yoshlarni kamol toptirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda. Hozirgi davrda fan va texnikani yuksak darajada egallash va jahon hamjamiyati mamlakatlari ta'lim standarti darajasiga yaqinlashtirish uchun intellekt ko'rsatkichi yuqori hamda mustaqil, ijodiy fikrlovchi o'quvlarni shaqllantirish maqsadga muvofiqdir.

O'smirlik davri 10–11, 14–15 yoshni tashkil etadi. Ko'pchilik o'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tish asosan 5–sinfдан boshlanadi. "Endi u bola emas–u, xali katta ham emas"-bu formula o'smirlik davri xarakterini bildiradi. Bu yoshda



o'smir rivojida keskin o'zgarishlar roy bera boshlaydi. Bu o'zgarishlar fiziologik, hamda psixologik o'zgarishlardir. Fiziologik o'zgarish jinsiy yetilishning boshlanishi va bu bilan bog'liq ravishda tanadagi barcha a'zolarining mukammal rivojlanishi va o'sishi, xujayra va organizm tuzilmalarining qaytadan shakllana boshlashidir. Organizmdagi o'zgarishlar bevosita O'smir endokrin sistemasining o'zgarishlari bilan bog'liqdir. Bu davrda ichki sekretiya bezlaridan biri gipofez bezining funksiyasi faollashadi. Uning faoliyati organizm to'qimalarining o'sishi va muhim ichki sekretiya bezlarining (qalqonsimon bez, buyrak o'sishi va jinsiy bezlar) ishlashini kuchaytiradi. Natijada bo'y o'sishi tezlashadi, jinsiy balog'atga etish (jinsiy organlarning rivojlanishi, ikkilamchi jinsiy bezlarning paydo bo'lishi) amalga oshadi. O'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o'zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma'lum darajada o'rtoqlari va o'qituvchilarga ko'rsatishga intiladilar. Bu xolatni oddiy kuzatish yo'li bilan ham osongina ko'rish mumkin. O'smirlik yoshiga xos bo'lgan psixologik xususiyatlarni o'rgana turib, o'smirlar shaxsining shakllanib, rivojlanib, kamolotga erishish yo'llarini va unga ta'sir etadigan biologik va ijtimoiy omillarning bevosita ta'sirini tushunish mumkin. Bu davrda o'smir baxtli bolalik bilan xayrlashgan, lekin kattalar xayotida xali o'z urnini topa olmagan xolatda bo'ladi.

O'smirlik davrida yetakchi faoliyat—bu o'qish muloqot hamda mexnat faoliyatidir. O'smirlik davri muloqotining asosiy vazifasi bu do'stlik, o'rtoqlikdagi elementar normalarini aniqlash va egallashdir. O'smirlar muloqotining asosiy xususiyati shundan iboratki, u to'la o'rtoqlik kodeksiga bo'ysinadi.

O'smirlarning ota—onasi, kattalar bilan qiladigan muloqoti asosan ularning katta bo'lganlik xissi asosida to'zilgan bo'ladi. Ular kattalar tomonidan qilinadigan haq—huquqlarini cheklashlariga, qarshilik va e'tirozlariga qattiq qayg'uradilar. Lekin shunga qaramasdan u muloqotda kattalarning qo'llab—quvvatlashlariga ehtiyoj sezadilar. Birgalikdagi faoliyat o'smirga kattalarni yaxshiroq tushinishlari uchun yordam beradi. O'smir o'zida bo'layotgan o'zgarishlar, uni tashvishga solayotgan muammolar xaqida kattalar bilan bo'lishishga katta ehtiyoj sezadi, lekin buni xech qachon birinchi bo'lib o'zi boshlamaydi. O'smir o'ziga nisbatan yosh bolalardek qilinadigan muomila —munosabatiga qattiq norozilik bildiradi. O'smirlar muloqoti nixoyasida o'zgaruvchanligi bilan xarakterlanadi. O'smirlik davriga kimningdir xatti—harakatini imitatsiya qilish xosdir. Ko'pincha ular o'zlariga tanish va yoqadigan kattalarning xatti—harakatlarini imitatsiya taqlidchanlik qiladilar.



Qayd etib o'tilgan yo'nalganlik albatta kattalarning ham muloqot va munosabatda mavjud, lekin ular kattalarnikidan o'z emotsionalligi bilan farqlanadi. Tengdoshlari, shuningdek sinfdoshlari guruxida o'smir o'zining kelishuvchanlik xususiyati bilan namoyon bo'ladi. O'smir o'z guruxiga bog'liq va qaram bo'lgani holda shu guruxning umumiy fikriga qo'shilishga va uning qarorini doimo bajarishga tayyor bo'ladi. Gurux ko'pincha o'smirda "Biz" xissining shakllanishiga yordam beradi va uning ichki xolatini mustaxkamlaydi. O'smir yoshdagi bola uchun do'st tanlash juda katta ahamiyatga ega.

O'smirlik davrida do'st juda qadri hisoblanadi O'smirlar kattalarning ularga bildiradigan ishonchlariga katta ehtiyoj sezadilar. Kattalarning o'smir yoshdagilar uchun ta'sir ko'rsatish, tarbiya berish uchun eng qulay sharoit—bu umumiy mexnat bilan shugullanishidir. Agar kichik yoshdagi bolalar yordamchi bo'lish rollaridan qoniqsalar, o'smirlar, ayniqsa katta o'smirlar kattalar bilan teng ravishda faoliyat ko'rsatayotganlaridan, lozim bo'lganda ularning o'rnlariga ham ishlay olishlaridan qoniqadilar. Agar kattalar o'smirlarning teng, do'stona, uni tula tushunadigan va aql bilan raxbarlik qilsalar, bunga o'smirlar ijobiy qaraydilar, lekin bu raxbarlik kattaning xohish—istagi ustunligi asosida bo'lsa, unday holda ular to'la qarshilik ko'rsatadilar. Bu qarshilik ko'pincha salbiy natijalarni, ba'zan esa depressiyani ham yuzaga keltirishi mumkin. Bu holat ko'pincha ota — onasi avtoritar munosabatda bo'luvchi oilalarda uchraydi. Ko'pgina bunday oilalarda tarbiyalanayotgan o'smirlar hayotda mustaqil holda xarakter qilishlari, o'z rejalarini amalga oshirishlari, qiyin maxsuliyatning o'z bo'ynilariga olishlari birmuncha qiyinroq. Ular ko'pincha intellektual xarakterdagi muammolarni ham qiyinchilik bilan engadilar. O'smirlik davrida bolalarning atrofdagi odamlar bilan shaxsiy va ish yo'zasidan bo'ladigan munosabatlaridagi mavqei o'zgaradi. Endi o'smirlar o'yin hamda damga qamroq vaqtlarini ajratgan holda ko'proq jiddiy ishlar bilan shug'ullana boshlaydilar va ularda bilish jarayonlari jadal rivojlana boshlaydi. O'qish o'smirlar xayotida katta o'rinni egallaydi. O'smirlar o'qishidagi asosiy motiv bu ularning kattaliklarini his ettiradigan, anglatadigan o'qish turlariga tayyorlanishlaridir. Ular uchun mashg'ulotlarning asosan mustaqillik beriladigan shakllari yoqadi. Boshqa davr bolalariga nisbatan o'smirlarning fanlarni muvafaqqiyatli o'zlashtirishlari qiziqishlarining orttirishlari o'qituvchining o'quv materialini tushuntira olish maxoratiga bog'liq, bilim o'rganish ehtiyojlari asosida asta-sekinlik bilan umuman o'quv fanlari nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi. Bu davrda o'qishning yangi motivlari yuzaga keladi. Bu motivlar asosan



## XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak o'smirning xayotiy rejalari kelajak kasbi, va ideali bilan bog'liq bo'ladi. Aynan o'smirlik davridan boshlab bolalar xayotiy ilmiy, badiiy bilimlarni kengaytirishga aloxida ehtiyoj sezadilar va bunga xarakat qiladilar. Bilimli bola tengdoshlari orasida xurmatga sozovor bo'ladi. Bilim o'smirlarga alohida bir quvonch bag'ishlaydi va uning tafakkur qilish layoqatini rivojlantiradi. O'smirlarning o'quv materiallarini faqat mexanik xotiraga asoslanishlari xalaqit berishlari mumkin. Bu davrda o'quvchilarga beriladigan o'quv materialining xajmi katta bo'lgani uchun ham uni eslab qolishi yoki bir necha marta takrorlash yo'li bilan o'zlashtirish qiyin. Buning uchun albatta o'quvchi o'quv materialini mazmunini taxlil qilishi, undagi mantiqiy tuzilishni bilishi muhim. Bu davrda bolalarning idrok, diqqat va tasavvurlari o'zgaradi, lekin bu o'zgarish bolaning o'ziga va atrofdagilarga sezilmagan holda kechadi. Shu bilan birga bu davrda bolaning xotirasi, nutqi, tafakkur jarayonlari ham jadal rivojlanadi. Bu o'zgarishlar atrofdagilarga sezilarli darajada bo'ladi. O'smirlik davrda bolani anglash va o'z-o'zini anglash darajasi ko'tariladi va unda o'zi, boshqa odamlar, olam haqidagi bilimlari chuqurlashadi. O'yin faoliyati asta-sekin kamayib, yangi faoliyatlar yo'zaga kela boshlaydi. Psixik rivojlanishning yangi bosqichi boshlanadi. O'smirlik davrida o'z faoliyatini nazorat etish rivojlana boshlaydi va o'zini-o'zi boshqarishga intilishi kuchayadi. Bir so'z bilan aytganda o'smirlik davri psixik rivojlanishda keskin burilish davri hisoblanadi.

## References:

1. Abduraxmonov F. Davletshin "Odamlar Bilan qanday muloqotga kirishish va yondashish kerak" 1996 y. Toshkent.
2. Adizova "O'qituvchilarning shaxslararo munosabatlarini psixologik diagnostikasi va korreksion ishlari".
3. Newstrom D., Devis K. Tashkiliy xatti-harakatlar. SPb., 2000.
4. Atabayeva N., Ismoilova N. Bolada altruizm shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar // Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari. – Toshkent, 2017. №3 (12). B 139-144 "Экономика и социум" №3(82) ч.1 2021 [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru) 48
5. Umarov B.M. "O'zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy psixologik muammolari" Toshkent: Fan, 2008. B 41-42.



6. Ильин Е.П Психология помощи. Альтруизм, эгоизм, эмпатия. СПб.: Питер 2013. 304с.
7. Султанова, А. М. (2023). Возможности цифровых технологий в образовании. Теория и практика современной науки, (11 (101)), 174-178.
8. Sirojiddinova, H. D. (2024). Inquiry-based learning: exploring methods that encourage students to ask questions and actively seek answers. So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi, 7(1), 143-148.
9. Dilnoza, M. (2020). Technology for the development of cognitive competence in future teachers based on the acmeological approach. EPRA International Journal of Research Development, 5(3), 464-465.
10. Hamroyevich, A. T., & Qizi, Y. U. I. (2021). Natural characteristics of expressing sign affixes.
11. Muhammadievich, J. A. (2023). THE MORAL SIGNIFICANCE AND SOCIAL NECESSITY OF PEACEMANSHIP. Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions, 1(8), 27-35.
12. Zhuraev, A. M. (2019). SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN IS INEXTRICABLY LINKED WITH THE PRINCIPLE OF PEACEKEEPING. SUSTAINABLE DEVELOPMENT, 9, 10-2019.
13. Жураев, А. (2019). Ўзбекистонда барқарор тараққиётнинг тинчликпарварлик тамойили билан узвийлиги. НамДУ илмий ахборотномаси, 143-148.
14. Жўраев, А. (2020). Тинчликпарварлик–маънавий юксалиш жараёнининг юксак қадрияти. ILM SARCHASHMALARI, 1(1), 32-35.